B.Vayner (Bernard Weiner) o'zining ta'lim sohasida olib borilgan motivatsiyaga doir tadqiqotlar tarixiga bag'ishlangan maqolasida bixevioristik nazariyada asosiy e'tibor tashqi motivatsiyaga ("mukofotlash"ga) qaratilsa, kognitiv nazariyada ichki motivatsiyaga ("maqsadlar"ga) urg'u berilishini ta'kidlaydi [15]. Zamonaviy kognitiv nazariyada ichki motivatsiya uchta omil asosida yaratilishi isbotlangan, deya qaraladi, bular: ***chaqiriq hissi, xayolot va nomuvofiqlik (ziddiyat) tuyg'usi***. Chaqiriq hissi turli tiplarning tasodifiy muomalasi, fe'l-atvori yoki yashirin axborotlar tufayli oldindan kutilmagan natijalar beruvchi harakatlar bilan bog'liq. Xayolot o'qish jarayonida dolzarblashadigan ko'nikmalarga qaram bo'ladi, nomuvofiqlik (ziddiyat) tuyg'usi esa ta'lim oluvchi bilimini chala, yetishmaydi va juda g'arib, deb ishonishni boshlaganida uyg'onadi. Ta'lim oluvchining ichki motivatsiyasi sezilarli o'zgarishlarni kutganda yoki aniq qayta aloqa va harakatlar uchun ravshan ko'rsatmalar bo'lganda faollashadi [8; 126-b.].

Ahamiyatli jihati shundaki, pedagoglarning kasbiy ehtiyojlari mutlaqo turlicha bo'lishi mumkin va ular mutaxassisning kompetentlilik darajasi, sohadagi ish staji, ishlayotgan ta'lim muassasasi turi, individual kasbiy qiziqishlari, kognitiv imkoniyatlari kabi omillar bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqishda asosiy e'tibor taklif qilinayotgan kurslarning variativlik va modullilik xususiyatlariga e'tibor qaratilishi lozim. Zero, malaka oshirish jarayoni pedagoglarning "...individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, mamlakatning ta'lim sohasi oldiga qo'yayotgan vazifalaridan kelib chiqib tashkil etilsa, shaxsan pedagogga ham, ta'lim muassasasiga ham va jamiyatga ham foydali ish bo'ladi [1; 21-b.]".

Ehtiyojlarning o'sishi ta'lim oluvchilarni o'quv faoliyatiga undashi, ijobiy munosabatni vujudga keltirishi L.I.Bojovich tomonidan dalillanadi, ya'ni: "yangi ehtiyojlar ta'lim oluvchida yangi faoliyat va xulq-atvorni o'zlashtirish bilan yuzaga chiqadi, ehtiyojlarning kengayishi va paydo bo'lishi natijasida murakkablashib boradi, o'quv faoliyati ehtiyojlarining rivojlanishi motivatsion muhit tuzilishi, ya'ni o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi ehtiyoj va motivlarning bir-biriga mos kelishidir" [4; 151-b.]. Germaniyalik tadqiqotchi X.Xenxauzenning fikricha, motiv tushunchasi ehtiyoj, istak, mayl, xohish, qiziqish, moyillik va intilish kabi ma'nolarni anglatib, ular o'zgaruvchan bo'lishi, harakatlarning aniq yo'nalganligi esa shaxsning maqsadga erishishida muhim omil vazifasini o'taydi [11; 38-b.].

Demak, motivatsiya va maqsadni belgilash komponenti, birinchidan, tinglovchilarning kasbiy qiyinchiliklari, ehtiyojlari asosida ularni rag'batlantiruvchi motivlarni belgilash, ikkinchidan, andragogik ta'lim tizimining umumiy maqsadi hamda tinglovchilarning o'z faoliyatiga oid individual maqsadi o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash, uchinchidan, tinglovchilarda o'z salohiyatlarini mumkin qadar namoyon qilish, idroki, tafakkurini kengaytirish, sermahsul o'zaro ta'sirni vujudga keltirish, to'rtinchidan, tinglovchilarni yaratilgan imkoniyatlardan foydalanish hamda ta'lim mazmunini erkin tanlash jarayonida faollashtirishni ifodalaydi.

Pedagog xodimlar uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini modellashtirishda sohaga oid olib borilgan ko'plab tadqiqotlardagi yakuniy fikrlar hamda ilmiy izlanishlar natijalari asosida O'UKR kognitiv-funksional modelining *konseptual komponenti* tarkibini quyidagi nazariy yondashuvlar (2-rasm) hamda ilmiy tamoyillardan iborat qilib belgilash mumkin (3-rasm).




**2-rasm. Konseptual komponent tarkibidagi nazariy yondashuvlar tuzilmasi**

*Kognitiv yondashuv* o‘qituvchilarda bilish jarayonlarini mukammmallashtirish asosida faollashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlanishga doir harakatlarini tashkillashtirish yo‘llari, shaxsiy-kasbiy barkamollikka erishishida ahamiyatga molik qadriyatli munosabatlarga oid bilimlarini chuqurlashtirishni ifodalaydi. Bu yondashuv o‘qituvchi kasbiy rivojlanishining borliqni idroklash, bilish faolligini oshirish, tafakkur, bilimlarni egallash, qayta ishlash, tizimlashtirish, saqlash, qayta yetkazish, izohlash, amaliyotda qo‘llash, yangilarini yaratishga yo‘nalganligini anglatadi. Shuningdek, o‘qituvchining butun faoliyati davomida uning bilish jarayonlarini faollashtirish, kognitiv imkoniyatlarini kengaytirish, refleksiyasini kuchaytirish, murakkab pedagogik vaziyatlarda oqilona yechim topishi uchun doimiy ravishda ilmiy-metodik va tashkiliy-boshqaruv jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish zaruriyatini ham belgilaydi.

*Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv* pedagogning o‘ziga xos xususiyatlari, individualligini rivojlantirish, harakatlarning o‘zaro bog‘liq tushuncha, g‘oya, uslublari tizimiga tayangan holda, ularning kasbiy o‘sishi, o‘z-o‘zini anglashi, ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish jarayonlarini hamda qo‘llab-quvvatlash va ta’minlash vositasida tashkiliy-pedagogik faoliyatga mo‘ljal olishni nazarda tutadi. Bu yondashuv pedagoglarga kasbiy ehtiyojlariga asoslangan holda individual trayektoriyasini tuzish, kasbiy rivojlanishning shakl, usul, vaqt hamda muddatlarini belgilashda erkinligi va mustaqilligining birinchi darajadaligi bilan amalga oshiriladi.

*Androgogik yondashuv* katta yoshli ta’lim oluvchilarning individual belgilariga asoslanadi. Ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- katta yoshlilar ta’lim jarayonida nimani o‘rganishlari haqida aniq tasavvur va motivga egaliklari sababli faol pozisiyani egallaydilar;

- ularda oʻz-oʻzini faollashtirish, oʻz-oʻzini boshqarish, oʻz-oʻzini rivojlantirishga doir aniq ichki koʻrsatma mavjud;
- oʻz rivojlanishining manbasi yoki toʻsigʻi boʻlishi mumkin boʻlgan ijtimoiy va madaniy tajribaga ega;
- faoliyatidagi vazifalar hamda muammolarini yechishga qaratilgan bilimlar va kompetensiyalarni egallashga ehtiyoj sezadi;
- taʼlim olishda oʻz resurslarini tejashdan manfaatdor;
- malaka oshirishni tashkillashtirishning barcha bosqichlarida oʻquv jarayonini boshqarishning teng huquqli aʼzosi.

Mazkur holatda uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida oʻqituvchi va tinglovchining oʻzaro taʼsiri toʻliq taʼminlanadi hamda androgogning maslahatchi, supervizor, moderator, fasilitator kabi funksiyalari dolzarblashadi.

*Kompetensiyaviy yondashuv* zamonaviy taʼlimning barcha bosqichlari kabi malaka oshirish boʻgʻinini takomillashtirishning ham ustuvor yoʻnalishidir. Bunday yondashuv pedagoglarning kasbiy kompetentliligiga yoʻnaltirilgan, faoliyatida yuzaga keladigan muammo va qiyinchiliklarining tayyor yechimlarini bermasdan, mustaqil izlanishida ilmiy-metodik kuzatuvni amalga oshirish tarzida tushuniladi. Kompetensiyaviy yondashuv negizida oʻz mavqeyini oʻzi belgilashi, oʻz-oʻzini rivojlantirish, oʻz-oʻzini namoyon qilish va kasbiy kelajagini koʻra olish madaniyati turadi.

OʻUKR koʻp variantli tizimini amaliyotga kiritishda kompetensiyaviy yondashuvning alohida ahamiyatliligi shundaki, unda kompetensiyalarni baholash oʻzlashtirilgan bilimlarning hajmi va sifatiga yoʻnaltiriladi. Demak, bu jarayonda pedagoglarning faoliyatini, ayniqsa, kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlarini tashxislash, kuzatish hamda xolisona baholashning obyektiv metodlaridan samarali foydalanishga eʼtibor qaratiladi.

*Faoliyatli yondashuv* OʻUKRni tashkillashtirishda pedagogik faoliyat davomida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, muammolar yechimini mustaqil topish, shaxsiy-kasbiy rivojlanishiga doir bilim va koʻnikmalarni mustaqil egallash, oʻz-oʻzini anglagan shaxsni yaratishga yoʻnaltirilgan faoliyat sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv uzluksiz kasbiy rivojlantiish jarayonini loyihalashda tizimning turli shakl hamda vositalarini inobatga olishga imkon beradi. Faoliyatli yondashuvda asosiy shart oʻqituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishga ongli va aniq yoʻnaltirilgan harakatlari hisoblanar ekan, ularning faolligi, bilish jarayonlari, kognitiv imkoniyatlari, qiziqishlari, kasbiy oʻsishga ehtiyoji asos boʻladi. Akademik A.M.Novikov shaxs faoliyatini tashkil qilishning oʻziga xos xususiyatlarini bilish nuqtayi nazaridan tahlil qilib, uning shaxsiy va kasbiy sifatlarga bogʻliq uchta bosqichini koʻrsatadi: operatsion bosqich – "inson-bajaruvchi"; taktik bosqich – "inson-faol (harakatchan)", harakatlarni tuzish umumiy algoritmini egallagan; strategik bosqich – oʻz faoliyati maqsadi va metodlarini mustaqil belgilaydigan "inson-ijodkor" [9; 61-b.]. Koʻrinib turibdiki, bilish darajasi oʻqituvchining kasbiy rivojlanish jarayonida faoliyati oʻzgarib borishining sifat va miqdor xususiyatlarini belgilaydi.

*Kommunikativ yondashuv* [13; 14] oʻqituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda oʻqitishni tashkillashtirishning kommunikativ yoʻnalganligini ifodalaydi. Bunday yondashuv oʻqituvchining jamoada oʻzini tutishi, oʻzaro taʼsirga moʻljal olishi, axborotlarni va tajribalarni tezkor almashishi hamda kognitiv faollik bilan xarakterlanadi. Mazkur jarayonlar oʻqituvchining kommunikativ kompetentliligini aniq sharoitlarda rivojlantirish, guruhlarda ishlash, oʻzaro ishonch, oʻzaro yordam, oʻzaro masʼuliyatlilikni oshirish, tajribalarning faoliyati

uchun muhim boʻlganlarini oʻrganish va shaxsiy tajribasini ommalashtirish, yangiliklarga ochiqligiga yoʻnaltiriladi.

*Uzluksizlik tamoyili.* Tayanch tamoyil boʻlib, oʻqituvchining butun umri, jumladan, pedagogik faoliyati davrida taʼlimga doir salohiyatini yuksaltirishdan toʻxtamaydigan va aniq maqsadga yoʻnaltirilgan jarayon sifatida qaraladi. Mazkur tamoyil UKR tizimining barcha diskret unsurlarini birlashtirish, mustaqil taʼlim, kurslarda oʻqish jarayonlarini qoʻshib olib borish, ular orasida aniq belgilangan chegaralarni qoʻymaslik va taʼlim muhitining ixtiyoriy boʻgʻinlarida bezarar moslashish imkoniyatini ifodalaydi.

*Diversifikatsiyalash tamoyili.* Mazkur tamoyil tizimda faoliyat turlarini kengaytirish, yangi xillarini topish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish turlari va shakllarini turli-tumanlashtirish, tinglovchilarga kasbiy oʻsish, oʻzlarini namoyon qilish hamda mobilligini taʼminlashga qulay sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

*Individuallashtirish va differensiallashtirish tamoyili.* Kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida oʻqituvchilarning alohida xususiyatlari, imkoniyatlari va kompetentliligini inobatga olish orqali individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini qurishni nazarda tutadi. Kasbiy rivojlannish va malaka oshirish dasturlarini tuzishda pedagoglarning malaka toifasi, ish staji, yoshi, kasbiy mahorati darajasi, axborot texnologiyalarini qoʻllay olishi, modullarni oʻzlashtirish surʼati, vaqti hamda manzil sharoitlari hisobga olinadi.




**3-rasm. Konseptual komponent tarkibidagi ilmiy tamoyillar tuzilmasi**

*Modullilik tamoyili* OʻUKR ta’limida oʻquv materialini aniq maqsadga erishishga moʻljallangan alohida funksional qismlar, ya’ni modullarga boʻlish va ularni oʻzlashtirish ketma-ketligini belgilashni nazarda tutadi. Bu oʻrinda oʻquv materiali shunday tuzilishi kerakki, unda tinglovchilar oʻz oldiga qoʻygan didaktik maqsadining yechimi ta’minlanishi hamda andragogik ta’lim turli shakllarining uygʻunlashtirilishiga e’tibor qaratish talab etiladi.

*Variativlik tamoyili* tizimning moslashuvchanligi hamda variativligini ta’minlash, oʻqituvchilarga taklif etiladigan modullar, malaka oshirish shakl va usullarini tanlashga sharoit yaratish natijasida ta’lim mazmunini oʻzlashtirishni maqbullashtirish imkoniyatini ifodalaydi.

*Oʻzaro ta’sir tamoyili* tizim ishtirokchilarining jarayonni maqbul tashkilllashtirish, takomillashtirishga oid vazifalarni hamkorlikda hal etish, oʻquv mazmunini ishlab chiqish, tatbiq qilish, samarali boshqaruvni yuritishda barcha ishtirokchilarning manfaatlarini koʻzlash, teng huquqliligini ta’minlash, ilgʻor tajribalarni oʻrganish va ommalashtirilishini belgilaydi.

*Refleksivlik tamoyili* oʻqituvchilarning oʻz kasbiy missiyasini anglashi, faoliyatini tahlildan oʻtkazish, muammoli vaziyatlarni aniqlash, shaxsiy tajribasi ma’nosini tushunish, istiqboldagi harakatlarini loyihalash va oʻz-oʻzini rivojlantirish yoʻllarini ishlab chiqishini nazarda tutadi.

*Ilmiy-metodik kuzatuv tamoyili* oʻqituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ongli munosabatini shakllantirish, ularning individualligi, mustaqilligi, pedagogik vaziyatlarda eng maqbul yechimni topishi, ichki salohiyatini roʻyobga chiqarishiga sharoit yaratish, har taraflama konsultativ yordam koʻrsatish hamda oʻz-oʻzini faollashtirish, oʻz-oʻzini namoyon qilishga intilishini qoʻllab-quvvatlash va kasbiy mahoratiga boʻlgan ishonchini mustahkamlashni ifodalaydi.

*Elektivlik tamoyili* pedagoglarga oʻz-oʻzini oʻqitish maqsadi, mazmuni, shakli, metodlari, manbalari, vositalari, muddati, vaqti, joyi va natijalarini baholashni tanlashda erkinlikni nazarda tutuvchi individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish imkoniyatini ta’minlash bilan izohlanadi. Shuningdek, tinglovchilarning oʻziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan, birxillashtirishdan qochish sharoitini yaratadigan va barchaga oʻz qobiliyatini mumkin qadar namoyon qilishga imkon beradigan koʻp vektorli yondashuv nazarda tutiladi.

*Integrativlik tamoyili* UKR jarayonining barcha elementlari va subyektlarining oʻzaro aloqadorlikda boʻlishini nazarda tutadi. Mazkur tamoyil uzluksiz kasbiy rivojlantirish mazmuni, shakli, metod, vositalarini belgilashda butunlik va tizimlilikni ifodalaydi. Integrativlik tamoyili orqali pedagoglar kasbiy shakllanishida oliy va malaka oshirish ta’limi oʻrtasidagi uzviylik hamda uning formal, noformal, informal turlarini uygʻunlashtirish ta’minlanadi.

Modelning *protsessual-mazmunga doir komponenti* OʻUKRga kognitiv yondashuvning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari hamda oʻqitish bosqichlari, mazmuni, shakl va metodlarini qamrab oladi (4-rasm). Yuqorida keltirilgan yondashuvlar, tamoyillar asosida ishlab chiqilgan andragogik ta’lim mazmuni oʻqituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi hamda ularning kompetentlilik darajasi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.




**4-rasm. Protsessual-mazmunga doir komponent tuzilmasi**

Oʻqituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishi samarali boʻlishi uchun unda oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarish, oʻz-oʻzini namoyon qilish, mustaqil bilim olish, idroki, tafakkuri, kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, konsultativ va innovatsion faoliyatga turgʻun motivatsiya shakllanishi lozim. Shuningdek, oʻqitishning zamonaviy usullari, ilgʻor texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari, tadqiqot metodlari, tashxis usullari, taʼlim muhitini tashkillashtirishning oʻziga xos xususiyatlarini bilishi hamda pedagogik jarayonni loyihalash, modellashtirish, natijalarni oldindan koʻra bilish koʻnikmasi kabi sifatlarga ega boʻlishi muhim ahamiyatga ega.

Oʻquv mashgʻulotlari, pedagogik maslahatlar, qoʻllab-quvvatlash, ilmiy-metodik kuzatuv mazmuni nafaqat zaruriy kompetensiyalarni egallashga, balki tinglovchilarning bilish faoliyatini mukammallashtirish hamda boshqa subyektlar bilan oʻzaro taʼsir usullarini oʻzlashtirishiga qaratilishi zarur. Jarayonda tizimning barcha resurslaridan samarali foydalanish, talaba-tinglovchilarning toʻliq safarbarligi, faolligini taʼminlash, qiyinchiliklari, ehtiyojlari, individual xususiyatlari, kognitiv imkoniyatlari va kompetentlilik darajasini inobatga olish lozim.

Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishga kognitiv yondashuv samaradorligini taʼminlash muayyan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni vujudga keltirish orqali amalga oshiriladi.

Pedagogika fanida ixtiyoriy shart-sharoitlarni belgilash pedagogik voqelikning subyektiv aks etish shakli boʻlib, borliq bilan oʻzaro munosabatini nazarda tutadi. M.V.Zvereva oʻz tadqiqotlarida shart-sharoitlarni pedagogik tizimni tashkil etuvchi komponentlarning mazmuniy xarakteristikasi, deb tushuntiradi hamda tarkibiy qismlari sifatida oʻqitish mazmuni,

tashkiliy shakllari, vositalari, oʻqituvchi va oʻquvchilarning oʻzaro munosabatlari xarakterini koʻrsatadi [6; 31-b.].

Mazkur tushunchalar OʻUKRga *kognitiv yondashuvning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari* deganda, tinglovchilarning kasbiy rivojlanishini maqbullashtirish imkonini beruvchi oʻzaro bogʻliq, bir-birini taqozo qiluvchi integrativ tadbirlarni tushunish hamda quyidagicha belgilash bilan anglashiladi:

- *oʻqituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda ilmiy-metodik kuzatuvni amalga oshirish.* Mazkur shart-sharoitlar tinglovchilarning kasbiy muammolarini hal qilishda ichki salohiyati va tajribalari asosida mustaqil xulosaga kelishiga har tomonlama koʻmak berishni ifodalaydi;

- *qayta tayyorlash hamda malaka oshirish oʻquv mazmunini zamonaviy talablar doirasida modulli shakllantirish va ta'limning formal, noformal, informal turlarini integratsiyalash.* Oʻqitishning modulli texnologiyalari va OʻUKR oʻquv mazmunini takomillashtirishning aloqadorligi, andragogik ta'lim tizimining barcha turlaridan oʻrinli foydalanish orqali kreditlarga asoslangan modulli-jamgʻariladigan tizimni tashkillashtirish yoʻsinida samaradorlikka erishishni belgilaydi;

- *uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini individuallashtirish va uzluksizligini ta'minlash.* Oʻquv dasturlari variativligiga erishish, pedagoglarning kasbiy ehtiyojlari, alohida xususiyatlari, imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda oʻqitish mazmuni, shakli, metodlari, vositalari, vaqtini belgilash hamda kasbiy refleksiyani qaror toptirishga sharoitlar yaratish asosida OʻIKRT tuzish nazarda tutiladi.

*Kognitiv komponent* loyihalangan modelning negizini ifodalaydi hamda OʻUKR kognitiv mexanizmlarini takomillashtirishda poydevor vazifasini oʻtaydi. Mazkur komponent oʻqituvchilarning ongli faoliyati, missiyasini anglashi, oʻz oldiga qoʻygan maqsadiga erishish, shaxsiy-kasbiy fazilatlarini takomillashtirish, bilish jarayonlarini mukammallashtirish, kognitiv imkoniyatlarini kengaytirish, harakatchanligi, egiluvchanligi, kasbiy rivojlanishdan kutilmalarining muqarrarligi, murakkab pedagogik holatlarda oqilona qaror qabul qilish, muammoga asoslangan oʻqitish koʻnikmasi koʻrinishida muayyan oʻquv vaziyatlari yechimlarini bashoratlash asosida uzluksiz kasbiy rivojlanishida tayanch nuqtani bildiradi (5-rasm).




**5-rasm. Kognitiv komponent tuzilmasi**

Oʻqituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning kognitiv-funksional modelining *refleksiv-kommunikativ komponenti* oʻz-oʻzini va oʻzaro nazorat qilish koʻnikmasini, kompetentliligini (yoki kompetensizligini) adekvat baholash, faoliyatidan qanoatlanish, oʻz-oʻzini faollashtirish darajasini tahlillash, kasbiy qiyinchiliklari, ehtiyojlarini anglashi, tanqidiy munosabati, korreksiyalash qobiliyati, tajribalarni almashishda hamkorligi hamda ijodiy loyihalarni yaratish layoqatini rivojlantirishni oʻz tarkibiga oladi. Bu komponent tinglovchilarning ijodkorligini yuksaltirish, oʻz-oʻzini rivojlantirish, oʻz-oʻzini faollashtirish, oʻquv faoliyatida sheriklari bilan muloqotga kirishish, oʻzaro tajriba almashish usullarini oʻzlashtirish, alohida va guruhda ishlash koʻnikmalarini shakllantirish hamda tegishli subyektlar bilan oʻzaro taʼsirni amalga oshirishga yordamlashadi (6-rasm).




**6-rasm. Refleksiv-kommunikativ komponent tuzilmasi**

Refleksiv-kommunikativ komponent pedagogning mustaqil hamda guruhda ishlash koʻnikmasiga egaligi, oʻz tajribalarini oʻrtoqlashishi, oʻquv vazifalarini bajara olishi, hamkasblariga hurmat bilan munosabati, ularni eshita bilishi, oʻz fikrini, qarashlarini asoslashi va toʻgʻri ifodalay olishini belgilaydi. Shuningdek, ehtiyojlari, imkoniyatlari, salohiyati, oʻziga xos xususiyatlariga koʻra, malaka oshirish shakllari hamda vositalarini toʻgʻri tanlash orqali

individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuza olishi, oʻquv mazmunini shakllantirishda shaxsiy takliflari bilan ishtiroki hamda oʻz-oʻzini boshqarish kompetensiyasida aksini topadi.

Alohida taʼkidlash mumkinki, kasbiy rivojlanish samaradorligini aniqlashda nazorat, oʻz-oʻzini nazorat, oʻzaro nazorat turlaridan kompleks foydalanish natijalarning ishonchliligini va shaxsiy masʼuliyatlilikni taʼminlaydi.

Oʻz-oʻzini nazorat atamasiga pedagogika va psixologiya sohasida tadqiqot olib boradigan olimlar tomonidan tez-tez murojaat etiladi. Oʻz-oʻzini nazorat shunday shaklki, unda obyekt boʻlib subyekt faoliyatining oʻzi xizmat qiladi. Oʻz-oʻzini nazorat shaxsiy oʻquv faoliyatini ongli baholash va olingan natijani talab qilinadiganiga muvofiqlik darajasiga erishish maqsadida keyingi (zaruratga koʻra) moslashtirishni nazarda tutadi. Adabiyotlarda oʻz-oʻzini nazorat oʻz shaxsiyati, fazilatlari, xatti-harakatlarini tahlillash hamda u haqida fikr yuritish, ijobiy xislatlarini orttirib borish va, aksincha, salbiy tomonlarini bartaraf etishga qaratilgan faoliyat sifatida baholanadi [3; 267-b.].

Oʻzaro nazorat kompleks pedagogik usullardan biri sifatida oʻquv vazifasi yechimi etalonini koʻrsatmagan holda, tinglovchilarga bir-birlarining faoliyatini baholash taklif etiladi va bunda oʻzaro rozilikka eʼtibor qaratiladi. Demak, oʻzaro nazorat faoliyatni tomonlarning ishonch muhitidagi muloqot shaklidir. Oʻzaro nazorat shakllarini qoʻllash tinglovchilarning faolligi va mustaqilligiga erishish hamda ish surʼatini individuallashtirishga imkon beradi. Y.N.Bespalayaga muvofiq, taʼlim oluvchilarning oʻquv faoliyati samaradorligi sifatini belgilashda oʻzaro nazorat qilishning oʻrniga ortiqcha baho berishga hojat yoʻq, chunki u shaxsning halollik, adolatlilik, jamoadoshlik xislatlarini ishlab chiqishga yordam beradi hamda taʼlim oluvchilar faoliyatini sezilarli faollashtiradi va bilimlarga qiziqishini orttiradi [10; 71-b.].

Refleksiv koʻnikmalarni orttirish oʻqituvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega, yaʼni refleksiya ularning oʻz faoliyati maqsadi, mazmuni, vositalari, shakllari, usullari haqida toʻliq tasavvurga ega boʻlishiga olib keladi hamda faoliyatini tanqidiy baholash, korreksiyalash imkonini beradi va uni faol subyektga aylantiradi.

**Xulosa.** Demak, oʻqituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning loyihalangan kognitiv-funksional modeli jarayonning ijobiy dinamikasini belgilovchi turli vektorlarni uygʻunlashtirish, malaka oshirish turlarini (formal, noformal, informal) maqbul qoʻllash, oʻqituvchilarning ongli faoliyati, shaxsiy-kasbiy fazilatlarini rivojlantirish, kognitiv imkoniyatlarini safarbar qilish asosida samaradorlikka erishishga sharoit yaratuvchi oʻzaro bogʻliq boʻlgan komponentlar (motivatsiya va maqsadni belgilash, konseptual, protsessual-mazmunga doir, kognitiv, refleksiv-kommunikativ) tizimini ifodalaydi.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Raxmankulova N.H., Baxramov A.A. Xalq taʼlimi xodimlarining malaka oshirish kurslaridan keyingi faoliyatlarini pedagogik qoʻllab-quvvatlash masalalari // Xalq taʼlimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish taʼlimi sifati va samaradorligini taʼminlashning dolzarb masalalari. Resp. ilmiy-amaliy konf. mat.toʻp. – Toshkent, 2017. – B. 19-23.
2. Vaxobov M.M. Umumiy oʻrta taʼlim tizimida oʻqitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish: ped. fan. dok... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2016. – 92 b.
3. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: “ИКАР”, 2009. – 448 с.

4. Божович Л.И. О мотивации учения. Возрастная и педагогическая психология: хрестоматия. – М.: Академия, 1999. – 320 с.
5. Вершловский С.Г. От повышения квалификации к постдипломному педагогическому образованию / Андрогогика постдипломного педагогического образования (под. ред С.Г.Вершловского, Г.С.Сухобской). – СПб.: “СПб АППО”, 2007. – С. 6-33.
6. Зверева М.В. О понятии “дидактические условия” // Новые исследования в педагогических науках. – 1987. – № 1. – С. 29-32.
7. Косолапова Ю.В. Сопровождение профессиональной деятельности учителя по введению федеральных государственных образовательных стандартов общего образования: дисс... канд. пед. наук. – Владивосток, 2015. – 241 с.
8. Майер Б.О. О кластеризации когнитивных теорий обучения // Вестник Новосибирского государственного педагогического университета. – 2018. – Т. 8. – № 2. – С. 119-134.
9. Новиков А.М. Я – педагог. – М.: “Эгвес”, 2011. – 136 с.
10. Торосян Л.Д. Оптимизация самостоятельной работы студентов бакалавриата при обучении чтению на основе электронно-методического сопровождения (английский язык, экономический профиль): дисс... канд. пед. наук. – Москва, 2014. – 193 с.
11. Хенхаузен Х. Мотивация и деятельность. – СПб.: Питер; М.: Смысль, 2003. – 860 с.
12. Царан А.А. Нравственное самоопределение будущего менеджера в процессе профессиональной подготовки в вузе: дис… канд. пед. наук. – Тольяти, 2013. – 259 с.
13. Шамов А.Н. Лингводидактические основы когнитивного подхода в организации обучения лексике на уроках немецкого языка в средней школе. – Н.Новгород: “НГЛУ им. Н.А.Добролюбова”, 2004. – 190 с.
14. Шепилова А.В. Коммуникативно-когнитивный подход к обучению французскому языку как второму иностранному. – М.: “Школьная книга”, 2003. – 488 с.
15. Weiner B. History of motivational research in education // Journal of Educational Psychology. – 1990. – vol. 82 (4). – P. 616–622.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 11 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти



**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).